

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SAIDOVA NOZIMA AXROROVNA

**XX-XXI ASR INGLIZ BOLALAR ADABIYOTIDA FENTEZI JANRINING
MIFOPOETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Saidova Nozima Axrorovna

XX-XXI asr ingliz bolalar adabiyotida fentezi janrining mifopoetik xususiyatlari..... 3

Саидова Нозима Ахроровна

Мифопоэтические особенности жанра фэнтези в английской детской литературе XX-XXI веков 25

Saidova Nozima Akhrorovna

Mythopoetic Features of Fantasy Genre in English Children's Literature of XX-XXI centuries 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SAIDOVA NOZIMA AXROROVNA

**XX-XXI ASR INGLIZ BOLALAR ADABIYOTIDA FENTEZI JANRINING
MIFOPNETIK XUSUSIYATLARI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3793 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudova Nargiza Alimovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sodiqov Zohidjon Yakubjanovich

filologiya fanlari doktori, professor

Nasriddinov Dilshod A‘zamkulovich

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21A-uy. tel: (99871) 230-12-91. faks: (99871) 230-12-92; email:uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21A-uy. Tel: (99871) 230-12-91.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil “___” _____ da ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
filol.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi anotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi adabiy-estetik munosabatning yangicha ifodasi natijasida fentezi janri yuzaga keldi. Olamni idrok etishning eng qadimgi shakllaridan biri bo'lgan mifologik tasavvurlar tizimi, mif va afsona syujetlari zamonaviy talqinda fentezi asarlari badiiy kontekstida o'ziga xos tarzda ifodalana boshlandi. Magik, mistik, mifologik, assotsiativ, ironik badiiy tafakkur qahramonlik va sehr, epik, tarixiy, kulgili, mifologik, texnofentezi, romantik, g'ayrioddiy hamda bolalar fentezisining yaralishiga zamin yaratdi. XX asr o'rtalarida fentezi mustaqil janrga aylandi, XXI asrning boshlarida esa mashhurlikka erishdi. Fentezi mistik va real voqealarni mujassam etgan janr bo'lib, uning manbai mifologiya hisoblanadi. Shu bois tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy muammolaridan biri – mifning fentezi adabiyotidagi o'rnini aniqlash, muammoni nazariy, tarixiy, adabiy-estetik jihatdan har tomonlama o'rganish zarurati bilan bog'liq.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda bolalar uchun yozilgan kitoblarning asosiy qismini bolalar fentezisi tashkil etadi. XX asr fentezi asriga aylandi va fentezi o'zining janriy xususiyatlariga, mualliflarning maqsad va uslubiga ko'ra turli shakllariga ega bo'ldi. Bolalarning fentezi asarlarini tahlil qilish ushbu janrning sof shaklda mavjud bo'lmasligi hamda uning tarbiya romani, sarguzasht roman, gotik roman, ertak, mif kabi janrlarga xos belgilarni o'zida mujassamlashtirgani ushbu janrning tahlil qilish metodlarini ochib berishga xizmat qilgani sababli adabiyotshunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bolalar fentezi janri yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagani, aniq janriy chegaralarining yo'qligi, ushbu voqelik atrofidagi ko'plab bahsmunozaralar hanuzgacha to'xtamaganligi ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbek adabiyotshunosligida jahon adabiyoti durdonalarini tahlil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fentezi janrida yozilgan asarlarni tahlil qilish hamda mualliflarning poetik mahoratini ochib berishda uning umumiylik va individuallik prinsiplariga asoslanishi, mifopoetik tasvir vositalaridan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Kelajak avlod tarbiyasi ular mutolaa qiladigan kitoblarga bog'liq. Shu sababli ham ushbu asarlarni tahlil qilish, ularning estetik va didaktik ahamiyatini yoritish lozim. Zero, o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida "O'zbek adabiyoti xazinasidan" ko'p jildlik, "Jahon bolalar adabiyoti durdonalari" 100 jildligini o'zbek tilida nashr qilish¹ masalasi qat'iy qo'yildi. Bolalar fentezi adabiyoti pand-nasihati xususiyatiga ega bo'lgani bois yosh kitobxonlarni qiziqarli syujet orqali tarbiyalash vazifasini ham amalga oshiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni// <https://lex.uz/docs/-6600413>

Ushbu dissertatsiya natijalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga 2020-yilning 24-yanvaridagi Murojaatnomasi va mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida fentezi janrining kelib chiqishi va uning janriy xususiyatlari yetakchi g‘arb olimlari R.Tolkien, N. Frye, J. Campbell, M. Bane M. Cart, H. Darton, L. Dorsett, M. Fry, S. Huttar, N. Michael, R.Thompson, C. Jung² ilmiy g‘oyalarini kengaytirib, adabiyotning mifologik va arxetipik talqini rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. J. Campbell “monomif” tushunchasini yaratib, miflarning asosiy vazifalarini tadqiq qilgan³.

Rus olimlari I. Mineralova, Ye. Smirnova, T. Chernisheva, Ye. Dyakonova, Ye. Kovtun, A. Gusarova, Ye. Afanasyeva, V. Kaplan, V.Tolkachyova kabi olimlar tomonidan fentezi adabiyoti, uning janriy xususiyatlari, o‘ziga xos unsurlari tadqiq etilgan⁴. Fentezi hamda ilmiy fantastika va ertakning mushtarak va farqli jihatlari

² Tolkien J.R.R. On Fairy Stories. – London: Oxford University Press, 1947. –60 p.; Frye N. Anatomy of Criticism: Four Essays. – USA, New Jersey: Princeton University Press, 2000. –402 p.; Campbell J. Lectures II.1.1 The Function of Myth (given at The Esalen Institute in August 1969); Bane M. Myth Made Truth: The Origins of the Chronicles of Narnia/ M. Bane // Into the Wardrobe a C. S. Lewis web site: сайт. –URL: <http://cslewis.drzeus.net/papers/originsofnarnia.html> (Murojaat sanasi: 27.09.2022); Cart M. From Insider to Outsider: The Evolution of Young Adult Literature // Voices from the Middle. – 2001. – № 9 (2). – P. 95–97.; Darton H. Children's Books in England: Five Centuries of Social Life. –Cambridge University Press, 2011. – 394 p.; Dorsett L.W., Mead M.L. C. S. Lewis: Letters to Children. – Collins, 1985. – 120 p. ISBN 0-684-82372-1.; Fry M. C.S.Lewis' The Chronicles of Narnia. A Critical Analysis. – Montreal, McGill University, 1975. – 216 p.; Huttar C. A// C. S. Lewis's Narnia and the ' Giand Design in Peter J Schakel(ed), The Longing a Form, Essays on the Fiction of C.S. Lewis. – Kent, Kent State University Press, 1977. – p.130.; Michael N.S. Hobbits, Elves, and Wizards. Palgrave for St.Martin’s press, 2001.–208 p.; Thompson R.K. 1982. Modern Fantasy and Medieval Romance: A Comparative Study. In Schlobin, R.C. (ed.) 1982. The Aesthetics of Fantasy Literature and Art. 211-221. Indiana, the Harvest Press.; Юнг К. Г. Архетип и символ. – М.: Ренессанс, 1991. – 298 с.

³ Campbell J. Lectures II.1.1 The Function of Myth (given at The Esalen Institute in August 1969).

⁴ Минералова И.Г. Детская литература. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: ВЛАДОС, 2002. –175 с.; Смирнова Е.В. Мир фэнтези – вымысел или реальность? Мировая словесность для детей и о детях. – Вып.10. М., 2005. –207 с.; Чернышева Т.А. Природа фантастики. –Издательство Иркутского университета, 1985. –

T. Chernisheva, M. Galina, V. Gopman, S. Belokurova, A. Osipov, L. Ovchinnikova tomonidan o‘rganilgan⁵. Fentezi asarlarining asosi hisoblangan mif hamda sehri ertaklar ustida Ye. Meletinskiy va V. Propp nazariy va ilmiy izlanishlar olib borishgan⁶. K. Lyuisning “Narniya yilnomalari” asari va xristian motivlari ustida rus olimlari A. Bushnyak, A. Vlasov, Yu. Obrazsova, S. Sheshunova⁷ kabilar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Rus adabiyotshunosligida bolalar fentezisiga doir tadqiqotlar Ye. Dvoryak va S. Moskalenkolar tomonidan amalga oshirilgan.⁸

O‘zbek adabiyotshunosligida so‘nggi o‘n yillardagi fentezi asarlariga bo‘lgan ilmiy qiziqish yanada jonlandi. Uning tadqiqiga yo‘naltirilgan ilmiy-ijodiy izlanishlar ko‘lami kengayib, J. Eshonqul, M. Jo‘rayev va M. Narziqulova tomonidan yaratilgan monografiyalarda mif, neomifologizmlar, muallif mifi haqida ma’lumotlar keltirilgan⁹. “Garri Potter” romanlarining tarjimalari¹⁰; Jorj Martin fentezi asarlari poetikasi va mifologik obrazlarga bag‘ishlab D. Nasriddinov, G. Nazarova, G. Xudoyberdiyeva kabi yosh olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar¹¹.

189 с.; Дьяконова Е.С. Конструирование единого пространства художественного аномального мира в произведениях жанра фэнтези // Вестник Иркутского государственного лингвистического университета. – 2008. – № 1. – с.12; Ковтун Е.Н. Поэтика необычайного: художественные миры фантастики, сказки, утопии, притчи и мифа (на материале европейской литературы первой половины XX века). – М., 1999. – 308 с.; Гусарова А.Д. Формула фэнтези (Принцип героя). А.Д. Гусарова. Проблемы детской литературы и фольклор: Сб. науч.тр. – Петрозаводск, 2004. – С.152-158; Афанасьева Е. Жанр фэнтези: проблема классификации // Фантастика и технологии (памяти Станислава Лема).; Каплан В. Заглянем за стенку. Новый мир. – 2001. – №9. – с.158.; Стругацкий А., Стругацкий Б. Давайте думать о будущем // Литературная газета, 1970. – 4 февр. – С.5; Толкачёва В. С. Фэнтези: жанр или литературное направление? // Известия ВГПУ. 2010. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fentezi-zhanr-ili-literaturnoe-napravlenie> (дата обращения: 27.03.2023).

⁵ Чернышева, Т. А. О старой сказке и новейшей фантастике / Т. А. Чернышова // Вопросы литературы. – 1977. – № 1. – С. 229–248; Неёлов Е.М. Еще раз о жанровой специфике фантастической литературы // Ученые записки Петрозаводского государственного университета. Серия: Общественные и гуманитарные науки. – 2008. – № 91. – с. 100; Гопман В.Л. Фэнтези. Краткая литературная энциклопедия терминов и понятий. – М.:Н.П.К.Интелфак. – с.678.; Белокурова С.П. Словарь литературоведческих терминов / С.Н. Белокурова. –СПб.: Паритет, 2006. –с.190.; Осипов А.И. Фантастика от «А» до «Я» (основные понятия и термины): краткий энциклопедический словарь. М.: Дограф, 1999. с. 320.; Овчинникова Л.В. Русская литературная сказка XX века (история, классификация, поэтика). Дис... канд. филол. наук. – М.: РИД «Альфа», 2001. – 387 с.

⁶ Мелетинский Е. М. Мифология // Новая философская энциклопедия / Ин-т философии РАН; Нац. обществ.-науч. фонд; Предс. научно-ред. совета В. С. Стёпин, заместители предс.: А.А. Гусейнов, Г.Ю. Семигин, уч. секр. А. П. Огурцов. – 2-е изд., испр. и допол. – М.: Мысль, 2010.; Пропп В. Морфология сказки. – Ленинград: Academia, 1928. – 152 с.

⁷ Бушняк А. В. «Хроники Нарнии» КС Льюиса как апелляция к глубинам духовного. – 2006.; Власов А. М. Библейский мотивы в «Хрониках Нарнии». Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, 2014. – 11-1. – С. 191-193.; Образцова Ю. Н. Библейские мотивы в «Хрониках Нарнии» КС Льюиса. Актуальные вопросы науки, 2014. – № 16. – С. 135-139.; Шешунова С.В. Библейские мотивы в «Хрониках Нарнии» К.С. Льюиса: проблемы перевода. – Мировая литература в контексте культуры, 2010. – № 5. – С.176-178.

⁸ Дворак Е. Ю. Русское детское фэнтези: жанровая специфика и особенности мифопоэтики. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 2015.; Москаленко С.В. Литературная сказка с элементами фэнтези в русской детской литературе 1970-х – 2000-х годов. – Москва, 2023.

⁹ Эшонкул Ж. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент, «Фан», 2019. – 313 б.; Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 184 б.

¹⁰ Rouling J.K. Garri Potter va afsonaviy tosh. Sh. Dolimov tarjiması. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. –366 b.; Rouling J.K. Garri Potter va maxfiy xona. Sh. Dolimov tarjiması. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. –366 b.

¹¹ Насриддинов Д. Жорж Мартин фэнтези асарлари поэтикаси: Филол.фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2021.– 173.б.; Назарова Г.П. Инглиз ва ўзбек адабиётида мифологик образлар Тизими, генезиси, бадий вазибалари: Филол.фан. фалс. д-ри (PhD) дисс. – Бухоро, 2022. –Б.73-80.; Худойбердиева Г.Ш. Жоан Роулингнинг Гарри Поттер

Ammo mazkur tadqiqotlarda aynan bolalar fentezisi alohida janr sifatida ilmiy-nazariy jihatdan yaxlit o'rganilmagan. Ushbu termin deyarli bir asrdan buyon mavjud bo'lishiga qaramay, taassufki, o'zbek adabiyotshunosligiga oid lug'atlar va adabiyotshunoslikka oid kitoblarga kiritilmagan. Shu sababli o'zbek adabiyotshunosligi doirasida "bolalar fentezisi" nazariyasini izchil o'rganish, uning janriy, badiiy va mifopoetik xususiyatlarini belgilash yangi tadqiqotlarga yo'l ochadi. Dissertatsiyada "fentezi", "bolalar fentezisi", "spekulyativ belletristika", "ikkilamchi olam" kabi atamalar kiritilgan va K. Lyuis hamda J. Rouling asarlari misolida mifopoetik tahlil qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Lingvistika va ingliz adabiyoti" kafedrasining "Xorijiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" ustuvor ilmiy yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi - ingliz adabiyotida bolalar fentezisining janriy xususiyatlari va mifopoetik unsurlarini K. Lyuisning "Narniya yilnomalari" va J. Rouling "Garri Potter" romanlari misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fentezi janrining tadrijiy taraqqiyoti bilan bog'liq nazariy va tarixiy omillarni, shakliy-uslubiy yangilanishlarni tadqiq etish va bolalar fentezi asarlarini tahlil qilishning asosiy tamoyillarini ilmiy asoslash;

ingliz adabiyotida bolalar fentezisining janriy tabiati, badiiy-kompozitsion xususiyatlarini izohlab, fentezi syujet qurilmasida sehri ertak an'alarini, uning mavzu doirasi, badiiylik darajasi (voqeiy darajasi hamda shakliy daraja – syujet, kompozitsiya, tasviriy-ifodaviy vositalar), sehri predmetlar, zamon va makon belgisi hamda obrazlar silsilasini tahlil qilish;

bolalar fentezi janri paradigmasida muallif mifining shakllanish mexanizmini, voqelikni badiiy idrok etib, an'anaviy poetik vositalar yordamida obrazli tasvirlash uslubini ochib berish hamda K. Lyuisning "Narniya yilnomalari" va J. Roulingning "Garri Potter" turkum-romanlarida folklor va mifologik obrazlar uyg'unligini tavsiflash asnosida mifologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, mifologik obrazlarning genezisi va fentezi asarlardagi badiiy talqinini izohlash;

K. Lyuisning "Narniya yilnomalari" asarida diniy-mifologik arxetiplar, motivlar hamda qadimgi mifologik tasavvurlarning diffuziyalashishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida K. Lyuisning "Narniya yilnomalari" ("The Chronicles of Narnia", 1949-1956) va J. Rouling "Garri Potter" ("Harry Potter", 1997-2007) romanlari tanlangan. Bu romanlarning tanlovi mavzu va g'oyaning umumiyligi, syujet va kompozitsiyaning o'xshashligi, bayon shakli, obraz va motivlar tizimi, falsafiy-estetik birligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning predmetini XX–XXI asr bolalar fentezi romanlarining janriy xususiyatlari va mifopoetikasi, ya’ni asarda muallif intensiyasiga muvofiq yaratilgan mifologik va arxetipik badiiy unsurlar (syujetlar, motivlar, obrazlar, arxetiplar va boshqalar) tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy-madaniy, mifopoetik tahlil, qiyosiy hamda funksional ta’riflash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fentezi janrining shakllanish va tadrijiy rivojlanish bosqichlarida mifologik tafakkurning badiiy-estetik tafakkurga o’tish jarayoni, miflarning fentezi asarlari badiiy-estetik sathida namoyon bo’lish holatlari bilan bog’liq nazariy va tarixiy omillar asosida bolalar fentezi asarlarining o’ziga xos badiiy xususiyatlari hamda fentezi asarlarini baholashning metodologik tamoyillari asoslangan;

ingliz adabiyotida bolalar fentezisining janriy xususiyatlarini ajratish va tasniflash orqali ularda sarguzasht romani, tarbiya romani, gotik roman, mif hamda xalq ertaklari unsurlari mavjudligi adabiy-estetik ta’sir va ijodiy individuallik sintezi natijasi ekanligi dalillangan;

bolalar fentezi janri paradigmasida muallif mifining shakllanish mexanizmi natijasida K. Lyuisning “Narniya yilnomalari” va J. Roulingning “Garri Potter” asarlarida folklor va mifologik obrazlar mushtarakligi izohlangan;

K. Lyuisning “Narniya yilnomalari” asarida diniy-mifologik arxetiplar va motivlarning o’ziga xosligi, turlari va asardagi badiiy vazifalari, mifologik tasavvurlarning zamonaviy badiiy adabiyotdagi o’rni adabiy jarayon kontekstida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bolalar fentezisining janriy va mifopoetik xususiyatlari aniqlangan bo’lib, bu adabiy qonuniyatlar shu kabi asarlarni tahlil qilish uchun nazariy manba sifatida xizmat qiladi;

chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasi, ingliz adabiyoti kabi fanlar bo’yicha yaratiladigan darslik va o’quv qo’llanmalarining mukammalashuviga xizmat qilishi asoslangan;

K. Lyuis va J. Rouling ijodlari kontekstida fentezi romanlarining ijodiy-individual uslubi, xususiyatlari, ikkilamchi olam va obraz yaratish mahoratini tahlil etish imkoniyatlari kengaytirilgan va mifopoetik unsurlari belgilab olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektga yondashuv va qo’llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan fentezi romanlarining tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar tarixiy-madaniy, yaxlit estetik hamda mifopoetik tahlil usullari bilan asoslanganligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar hozirgi zamon jahon adabiyoti, K. Lyuis va J. Rouling ijodi, fentezi va uning xususiyatlari, bolalar adabiyoti va bolalar fentezisi subjanri yuzasidan mavjud ma'lumotlarni kengaytirishi, shuningdek, fentezi janri tadqiqiga oid ilmiy ishlarni olib borish amaliyotida keng foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fentezi asarlari poetikasi va uning nazariy xususiyatlarini aniqlashda manba vazifasini bajara olishi hamda uning xulosalaridan “Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti”, “Adabiy-badiiy tahlil metodlari”, “Adabiy tanqidchilik tarixi”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik” va “Adabiy oqimlar evolyutsiyasi” fanlari bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qitishda hamda darslik, o‘quv qo‘llanmalari, majmua, lug‘atlar yaratishda; doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari, maqolalar, bitiruv malakaviy va kurs ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX-XXI asr ingliz adabiyotida bolalar fentezi janrining mifopoetik xususiyatlari bilan bog‘liq ilmiy natijalar asosida:

fentezi janrining shakllanish va tadrijiy rivojlanish bosqichlarida mifologik tafakkurning badiiy-estetik tafakkurga o‘tish jarayoni, miflarning fentezi asarlari badiiy-estetik sathida namoyon bo‘lish holatlari bilan bog‘liq nazariy va tarixiy omillarga doir xulosalardan Britaniya Kengashi (British Council) ko‘magida amalga oshirilayotgan 1683580 raqamli “Ingliz tili maktab fani sifatida: boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarining ilg‘or tajribalarini o‘rganish” mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 11-oktabrdagi 01/583-son ma‘lumotnomasi). Natijada bolalar fentezi asarlarining o‘ziga xos badiiy xususiyatlari hamda fentezi asarlarini tahlil qilishning metodologik tamoyillariga oid ma‘lumotlar loyiha doirasida yaratilgan o‘quv-metodik majmualarning mazmun-mohiyatini boyitishga xizmat qilgan;

ingliz adabiyotida bolalar fentezisining janriy xususiyatlarini ajratish va tasniflash orqali ularda sarguzasht romani, tarbiya romani, gotik roman, mif hamda xalq ertaklari unsurlari mavjudligi adabiy-estetik ta‘sir va ijodiy individuallik sintezi natijasi ekanligi borasidagi ma‘lumotlardan A-1-61 raqamli “Erasmus credit mobility” nomli amaliy loyihada samarali foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 11-oktabrdagi 01/582-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha mazmuni takomillashtirilib, fentezining badiiy xususiyatlari bilan tanishish imkoniyati yuzaga kelgan;

bolalar fentezi janri paradigmasida muallif mifining shakllanish mexanizmini tahlil etish natijasida K. Lyuisning “Narniya saltanati” va J. Roulingning “Garri Potter” asarlarida folklor va mifologik obrazlar mushtarakligi izohlanganiga oid ilmiy-nazariy konsepsiyadan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasida 2021-2022-yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san‘ati tarixi” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining

2023-yil 18-oktyabrda 10/2065-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiya natijalarining samaradorligi va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan erishilgan ijobiy natijalar fundamental loyiha doirasida dastur, elektron resurslar, nazariy va amaliy materiallar tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 6 ta respublika, 2 ta xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 142 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“**Kirish**” qismida dissertatsiya tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, qo'llanilgan metodlar, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, erishilgan natijalarning ilmiy yangiligi ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy etish va foydalanish imkoniyatlari, nashr qilingan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Fentezi adabiyotining umumnazariy, tarixiy va janriy tamoyillari**” deb nomlangan. Ushbu bobning “*Fentezi janrining nazariy konsepsiyasi*” nomli birinchi faslida “fentezi” terminining darslik va lug'atlarda keltirilgan ta'riflari, etimologiyasi, lug'aviy ma'nolari haqida so'z yuritiladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda fentezi adabiyotiga nisbatan uch xil yondashuv mavjud: 1) fentezi – ilmiy fantastikaning bir turi; 2) fentezi – adabiy yo'nalish; 3) fentezi – o'zning mazmuniy va shakliy belgilariga ega bo'lgan mustaqil janr. Ye. Kovtun, A. Gusarova, Ye. Afanasyeva¹² kabi olimlarning fentezini mustaqil janr degan fikriga qo'shilgan holda uning quyidagi shakliy va mazmuniy belgilari tasniflandi: 1) noreal xayolot olami tasviri; 2) obrazlar tizimi mifologik va folklor

¹² Ковтун Е.Н. Поэтика необычайного: художественные миры фантастики, сказки, утопии, притчи и мифа (на материале европейской литературы первой половины XX века). – М., 1999. – С.126.; Гусарова А.Д. Формула фэнтези (Принцип героя). А.Д. Гусарова. Проблемы детской литературы и фольклор: Сб. науч.тр. – Петрозаводск, 2004. – С. 152-158; Афанасьева, Е. Жанр фэнтези: проблема классификации / Е. Афанасьева // Фантастика и технологии (памяти Станислава Лема): сб. материалов Международной научной конференции 29-31 марта 2007. – Самара, 2009. – С. 86-93.

qahramonlaridan tashkil topishi; 3) syujetning sarguzashtlarga boyligi (qidiruv, sargardonlik, urush va boshqalar); 4) syujetni yaratuvchi asosiy omil – ezgulik va yovuzlik kurashi; 5) qadimgi va oʻrta asr zamon va makonining yaratilishi; 6) ertak kabi pand-nasihat gʻoyalarini tarannum etishi; 7) sehr-jodu asosiy janriy belgi hisoblanib, qahramon xarakteri, oʻy-fikrlari, hissiy kechinmalarini toʻliq ifoda etishda muhim rol oʻynaydi; 8) shartli badiiy voqelikni tasvirlashda muallifning toʻliq ijodiy erkinligi: syujet kutilmagan ravishda oʻzgartirilishi mumkin, chunki sehrli fentezi olamida imkoniyatlar cheklanmagan; 9) zamonaviy fentezi janri “sof” shaklda, yaʼni qahramonlik yoki klassik fentezi tarzida uchramaydi. Asosiy janriy belgilar bilan bir qatorda, ayrim namunalar siyosiy, tarixiy va hajviy romanlar xususiyatlarini birlashtiradi va “gibrid” turlarini hosil qiladi; 10) muallif qadimgi davr yoki oʻrta asr sharoitini yaratsa-da, uning qahramoni zamonaviy inson kabi fikrlaydi; 11) “eskeypizm”, yaʼni real hayotdan qochish. Kitobxon va muallifning borliqdan qochish uslubi. Kitobxonning hayot tashvishlaridan qochishi – badiiyatning sehrli olamiga toʻliq shoʻngʻishi, hayotiy haqiqatlardan bir oz muddatga chekinishini anglatadi. Oʻquvchi texнократik olam shiddatidan qochib, xayoliy olamga safar qilgan kezlarda hayotda hech qachon topa olmaydigan ajoyibotlarga duch kelib, xayoliy tasavvurdagi voqeliklarga ehtiyoj sezadi. Muallifning qochishini izohlasak, ehtimol, fentezi roman mualliflari ham haqiqatdan qochib, oʻzlari “xoʻjayin” boʻlgan xayoliy olamning gʻayritabiiy sirlaridan kitobxonni oshno qiladilar, buni hukm qilish qiyin, chunki bu shaxsiy va individual psixologik sohadir.

Shuningdek, ushbu faslda fentezi va ilmiy fantastika hamda ertak janrlari orasidagi mushtarak va farqli jihatlar haqida ham fikrlar bayon etilgan. Ilmiy fantastika va fentezi bir-biriga oʻxshash tuyulsa-da, tasvir obyekti bilan farqlanadi. Fentezi “hech bir joyda mavjud boʻlmagan olamlarni yaratadi <<...>> ilmiy fantastika esa oʻrganilmagan kelajak kosmosini tasvirlaydi”¹³. Agar fentezida qandaydir ilohiy, gʻayritabiiy kuchlar mavjud boʻlsa, ilmiy fantastikada ular boʻlmaydi. Fentezi tabiat qonunlariga oʻzi xohlagancha munosabatda boʻlishi mumkin, hatto ushbu qoidalarni buzishi ham tabiiy holat sanaladi. Ikkilamchi olam tasviridan tashqari, ushbu badiiy asar turlari qahramonlari, konflikt turlari bilan ham farqlanadi. Fantastikaning asosiy qahramonlari robotlar, olimlar, oʻzga sayyoraliklar (masalan, G. Uells, R. Bredberi, A. Azimovning romanlari) boʻlsa, fentezida esa gnom, elflar, monstrlar, ajdar, farishta kabi mifologik va folklor obrazlar boʻladi. T. Chernishevaning fikriga koʻra, “fentezi va ilmiy fantastika orasidagi eng muhim farq – ilmiy fantastika mavjud boʻlishi va tushuntirilishi mumkin boʻlgan voqeliklarni, fentezi esa imkonsiz narsalarni tasvirlaydi”¹⁴.

Demak, fentezi – adabiy janr boʻlib, undagi syujet voqealari oʻylab topilgan ikkilamchi olamda sodir boʻladigan, qahramonlar tomonidan sehr-jodu elementlaridan

¹³ Clute J. The Encyclopedia of Science Fiction. London: Orbit Books, 1993; The Encyclopedia of Fantasy. London: Orbit Books, 1997; Kroeber K. Romantic fantasy and science fiction. New Heaven, Lnd, 1988.

¹⁴ Чернышева Т.А. Природа фантастики. – Издательство Иркутского университета, 1985. – с. 189.

foydalaniladigan, asar syujeti mif va xalq ertaklariga asoslanadigan, mifologik va folklor obrazlarga murojaat qilinadigan hamda reallikdan qochish uchun mutolaa qilinadigan asarlar tushuniladi Asosan roman janrida yoziladigan fentezi asarlarining muayyan qismi yosh auditoriyaga mo'ljallab yaratiladi va odatda har doim yaxshilik va yovuzlik orasidagi kurashni tasvirlaydi. Kattalar fentezisidan farqli o'laroq, bolalar fentezilarida maktab voqealari, ilk muhabbat tuyg'usi, ota-ona bilan munosabatlar kabi bolalarga doir mavzular tasvirlanadi. Ushbu asarlar bola shaxsining ruhiy, psixologik va emotsional rivojlanishida sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Fentezini katta hajmdagi ertak deb ta'kidlash mumkin, chunki ertak ham asosan bolalar uchun yoziladi va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasli "*Ingliz bolalar fentezi adabiyotining tadrijiy takomili*" deb nomlanib, unda fentezi janrining tarixiy takomili, uning tasniflanishi va bolalar fentezi janrining o'ziga xos xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan. Fentezining subjanri hisoblangan bolalar fentezisi fentezi va bolalar adabiyoti elementlarini qamrab oladi. Adabiyotshunoslikda ushbu janrga yetarlicha ta'rif berilmagan. Fentezi janr tamoyillariga ko'ra, ushbu asarlarning asosiy qahramonlari noyob qobiliyatga ega bo'lgan bolalar bo'lib, sehrlil buyumlar yordamida yovuz raqiblarni mag'lub etishga imkon beradi. Syujet ko'pincha tarbiyaviy xususiyatni o'zida aks ettiradi. Ye. Afanasyeva o'zining fentezi janrining hozirgi kundagi eng maqbul klassifikatsiyasini taqdim etgan va "Fentezi janri: tasniflash muammolari" maqolasida fentezi asarlarini adresatga ko'ra kattalar va bolalar fentezisiga ajratadi¹⁵.

Fentezi janriga oid asarlarni tahlil qilish davomida asarlarning sezilarli qismi aynan yoshi katta auditoriya uchun yozilganiga guvoh bo'ldik, chunki asarning annotatsiya qismida 16+ yoki 18+ kabi yosh chegarasi belgilab qo'yiladi. Tahlil jarayonida kattalar va bolalar fentezisi orasidagi quyidagi farqlar aniqlandi:

1. Kattalar fentezi asarlari qahramonlari turli yoshdagi odamlar bo'lsa, bolalar fentezisida bosh qahramonlar har doim bolalar yoki o'smirlar bo'ladi.

2. Kattalar uchun yozilgan asarlarda siyosiy, iqtisodiy yoki boshqa shu kabi muammolar yoritilsa, bolalar asarlarida ilk muhabbat, o'smirlik muammolari, ota-ona bilan munosabatlar kabi bolalarga oid mavzular o'z aksini topadi.

3. Yoshi kattalar fentezisi syujeti agressiya, zo'rvonlik, sevgi-muhabbat kabi 18+ syujet voqealariga boy bo'ladi, bolalar fentezisida bo'lsa, sarguzashtlar zanjiri, harakatlar va dialoglar ko'p tasvirlanadi.

4. Kattalar asarlarni asosan vaqtichog'lik maqsadida o'qishsa, bolalar uchun mo'ljallangan asarlar tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Bobning "*Bolalar fentezi adabiyotining janriy unsurlari*" deb nomlangan uchinchi fasli bolalar fentezi janrining tasniflash va tahlil qilish muammolariga bag'ishlangan. Bolalar fentezi janrini tahlil qilishda o'ziga xos muammolar mavjud:

¹⁵ Афанасьева Е. Жанр фэнтези: проблема классификации // Фантастика и технологии (памяти Станислава Лема): сб. материалов Международной научной конференции 29-31 марта 2007. – г. Самара, 2009. – С. 86-93.

1) terminning ko‘p ma‘noliligi va noaniqligi; 2) janr chegaralarini belgilash masalasi¹⁶, fentezi janrida, ya‘ni boshqa janrlar – mif, ertak, tarbiya romani, sarguzasht romani, gotika va folklor unsurlarining mujassamligi.

Adabiyotshunoslar fentezi janriga qahramonlik eposi, afsona, ritsarlik romani, adabiy ertak, sevgi romanlari, tarbiya romanlari, “initsiatsiya” romanlari, gotik roman, ramziy okkultizm – tasavvuf adabiyoti hamda postmodernizm romani va boshqa janr unsurlari xos deb ta‘kidlashadi¹⁷.

Ushbu janrni tahlil qilish asnosida uning quyidagi turli adabiy janrlar xususiyatlarini o‘zida aks ettirgani aniqlandi:

Bolalar fentezi janri tarixiy shakllanish jarayonida bir qancha janrlarning xususiyatlari bilan boyitilib, sayqallanib borilgan. Ushbu janr tarbiya romanidan shaxsning kamolotga erishishi, axloq-odob tamoyillari hamda ustoz-shogird an‘anasi kabi shakliy hamda ma‘naviy xususiyatlarni o‘zlashtirsa, gotik romandan qorong‘ilik, mistika, demonologik kuchlar, sirli mavjudotlar hamda dahshatli maxluqlar kabi vahimali obraz va tasvirlarni ko‘chirgan. Sarguzasht romani fentezi uchun syujet qurilmasini bergan bo‘lsa, mif va asotirlar mifologik obrazlar-u ramzlar, motivlar yaratilishi uchun asos bo‘lgan. Ertak xususiyatlaridan bolalar fentezisi ezgulik va yovuzlik kurashi, qahramonlarning ijobiy va salbiyga bo‘linishi, folklor obrazlari hamda V. Propp sanab o‘tgan sehrlil ertak funksiyalarini¹⁸ o‘z janriy xususiyatlari sirasiga qamrab olgan.

G‘arbiy Yevropa adabiyotshunosligida “soyabon atama” spekulativ fantastika keng qo‘llaniladi. Bu konsepsiya fantaziya, gotika, ilmiy fantastika va distopik vaqt va makonda ro‘y beradigan voqeliklar aks etgan barcha turdagi romanlarni birlashtiradi. Fantaziya bu tasnifda alohida janr hisoblanadi¹⁹.

Ushbu janr elementlarini o‘rganish natijasida, bolalar fentezi janriga oid asarlarni mifopoetik tahlil metodidan foydalangan holda tahlil qilish kerak degan xulosaga kelindi (1-jadvalga qarang).


¹⁶ Махмудова Н.А. Чарльз Диккенс и жодиди тарбия романи жанри типологияси: Филол.фан. фалс. д-ри (PhD) дисс.автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 12.

¹⁷ Русская фантастика XX века в именах и лицах: Справочник. Под ред. М.И. Мещеряковой. – М.: Мегатрон, 1998. – С. 22.

¹⁸ Пропп В. Морфология сказки. – Ленинград: Academia, 1928. – 152 с.

¹⁹ Oziewicz, Marek (2017). "Speculative Fiction". Oxford Research Encyclopedia of Literature. Oxford Research Encyclopedia on Literature URL: <https://oxfordre.com/literature/view/10.1093/acrefore/9780190201098.001.0001/acrefore-9780190201098-e-78> (Murojaat sanasi: 10.12.2022)

Bolalar fentezi adabiyotining janriy unsurlari taraqqiyoti



Dissertatsiyaning “K. Lyuis va J. Rouling romanlarida bolalar fentezisining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” nomli ikkinchi bobi uch fasldan iborat bo‘lib, unda K. Lyuisning “Narniya yilnomalari” hamda J. Roulingning “Garri Potter” kitoblarida

bolalar fentezisining janriy xususiyatlari tahlil qilinib, asarlardan keltirilgan parchalar yordamida ochib berilgan.

Bobning “K. Lyuisning “Narniya yilnomalari” da bolalar fentezi an’analari” deb nomlangan birinchi faslida “Narniya yilnomalari” asarining yaratilish tarixi, yetti qismlar tahlilida mifopoetik xususiyatlar tasniflangan hamda ushbu kitobdagi bolalar fentezisining janriy xususiyatlari izohlangan. Epopeya “Arslon, jodugar va shkaf”, “Shahzoda Kaspiy”, “Tong sayohati yoxud dunyoning oxirigacha suzib borish”, “Kumush stul”, “Ot va uning bolasi”, “Afsungarning jiyani” va “So‘nggi jang”²⁰ nomli qismlardan iborat. Tahlilga tortilgan “Afsungarning jiyani” kitobi xronologik ketma-ketlikda o‘qilganda, birinchi o‘rinda turadi, chunki unda Narniya mamlakatiga asos solinishi, yovuz jodugarning paydo bo‘lishi va asar bosh qahramonlarining ushbu mamlakatga ilk sayohatlari haqida hikoya qiladi.

Ushbu asar o‘zida bolalar fentezisining quyidagi janriy xususiyatlarini mujassamlashtirgan:

1. Asarning bosh qahramonlari bolalardan iborat. Asarning turli qismlarida bosh qahramonlar o‘zgarib tursa-da, ularning barchasini o‘smir yoshigacha bo‘lgan bolalar tashkil etadi. “*Once there were four children whose names were Peter, Susan, Edmund, and Lucy, and it has been told in another book called The Lion, the Witch and the Wardrobe how they had a remarkable adventure*”²¹.

2. Syujet voqealari dialoglar va sarguzashtlar zanjiridan iborat, ya’ni kitobning har bir qismida qahramonlar oldiga turli kvestlar qo‘yiladi. Masalan, “Afsungarning jiyani” qismida Endryu amakiga va jodugarga qarshi chiqib, sehrli olma daraxtini ekish vazifasi qo‘yilgan bo‘lsa, “Arslon, jodugar va sehrli shkaf” kitobida yovuz jodugar bilan kurashib, uni mag‘lub qilish va Narniya mo‘jizaviy mamlakatiga sakinat olib kelish kerak bo‘ladi. “Shahzoda Kaspiy” nomli uchinchi kitobda Narniya mamlakati va uning xalqi hisoblanmish sehrli jonzotlarga xavf solgan qirol Miraz hamda uning armiyasiga qarshi kurashib, Kaspiyni Narniya qiroli qilib tayinlash asosiy maqsad hisoblanadi. Yilnomalarning “Tong sayohati yoxud dunyoning oxirigacha suzib borish” qismida Edmund, Lyusi, Yustas va shahzoda Kaspiy oldiga yetti sehrli qilichni axtarib, yovuz qaroqchilar bilan kurashish vazifasi qo‘yiladi.

3. Asar tili sodda, bolalar uchun tushunarli. Lyuis asarini bolalar tilidan, bolalardek o‘ylab yozadi. “Narniya yilnomalari” “bolalar tili”da yozilgan bo‘lib, undagi jumlar sodda, qisqa va lo‘nda. “*The Queen took from somewhere among her wrappings a very small bottle which looked as if it were made of copper. Then, holding out her arm, she let one drop fall from it on the snow beside the sledge. Edmund saw the drop for a second in*

²⁰ Tarjimalar muallifga tegishli.

²¹ Lewis C.S. The Chronicles of Narnia: Prince Caspian. – Harper Collins e-books, 2002. – P.3. “*Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, Piter, Syuzan, Edmund va Lyusi degan bolalar bor ekan. Ularning ajoyib sarguzashtlari “Arslon, jodugar va shkaf” deb nomlangan kitobda tasvirlangan*”.

mid-air, shining like a diamond”²². Ushbu misolda ko‘rish mumkinki, gaplar struktura jihatidan qisqa va sodda, so‘zlar murakkab emas, fikrlar mantiqiy ketma-ketlikda berilgan. Kitoblarning hajmi ham bolalarni zeriktirib qo‘ymaydigan hajmdan iborat. Masalan, “Afsungarning jiyani” 183 bet, “Arslon, jodugar va sehrli shkaf” 154 bet, “Shahzoda Kaspiy” qismi esa 195 betdan iborat²³.

4. Asar mavzusi bolalar yoshi va psixologiyasiga mos mavzulardan iborat. “Afsungarning jiyani” qismida bir-biriga begona bo‘lgan ikki bola, Polli hamda Digorining do‘stlashishi, ularning bir-biri bilan suhbatlari, ota-onalari bilan munosabatlari juda ko‘p tasvirlangan. Asarning “Arslon, jodugar va sehrli shkaf” qismida aka-ukalarning o‘zaro munosabatlari, oilaviy muammolari aks etsa, “Shahzoda Kaspiy” qismida esa birinchi muhabbat, o‘smirlik mavzulari ifodalangan.

5. Asar didaktik ahamiyatga ega. “Narniya yilnomalari”ning barcha qismlarida Aslan tomonidan bolalarga pand-nasihatlari beriladi. Bundan tashqari, asar davomida bolalar orasidagi o‘zaro munosabatlar, ularning harakatlaridan o‘zlariga xulosa chiqarishlariga guvoh bo‘lamiz. Masalan, “Tong sayohati yoxud dunyoning oxirigacha suzib borish” kitobida Lyusi opasi Syuzanga taqlid qilib, o‘zining tashqi ko‘rinishidan qoniqmaydi va natijada o‘zining opasiga aylanib qolganini sezib qoladi. Shunda Aslan unga har kim o‘zining tanasi va ruhi bilan tug‘ilishini va har bir inson – ilohiy tuhfa ekanligini aytganida, Lyusi o‘zining gumonlari va fikrlaridan uyalib, o‘zi uchun xulosa chiqaradi.

Bobning ikkinchi fasli “*J.Rouling ijodida bolalar adabiyoti va fentezisida janrlar tarkibi va badiiyati*” deb nomlanib, unda “Garri Potter” romanlarining asosiy janriy tarkibi, genezisi va badiiyati, yaratilish tarixi va asar qismlarining qisqacha mazmuni berilgan. Bolalar fentezi janrining xususiyatlari “Garri Potter” qismida tahlilga tortilgan. Tahlil natijasida ushbu kitob aynan bolalar auditoriyasi uchun yozilgani sababli bolalar fentezi janriga oid quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettirgani aniqlandi:

1. Asarning bosh qahramonlari – Hogvarts maktabining o‘quvchilari – Garri, Ron, Germiona hamda ularning ko‘plab do‘stlari va dushmanlari ushbu kitobni o‘qiydigan bolalarning o‘zlari bilan teng yoshda. Tarbiya romanlari qahramonlari singari ushbu asarlardagi voqealar rivoji davomida bosh qahramon bolalikdan o‘smirlik va yetuklikka erishishi, o‘zgarishi tasvirlangan. Muallif Garri Potterni maktab yillarini, tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan munosabatlaridagi muammolarni tasvirlaydi “...then tomorrow, Tuesday, was Harry’s eleventh birthday”²⁴, keyingi qismlarda esa turli sarguzashtlar, kvestlar uning ma‘nan va ruhan o‘sishiga turtki

²² Lewis C.S. *The Chronicles of Narnia: the Lion, the Witch and the Wardrobe*. – HarperCollins e-books, 2008. – P.38. “*Qirolicha o‘rab qo‘yilgan narsalari orasidan misdan yasalgan bir kichkina shishacha oldi va qor ustiga bir tomchi tomizdi. Edmund bir necha soniya havoda olmos kabi yaltiragan tomchini ko‘rdi*”. (tarj.-S.N.)

²³ Birinchi nashr.

²⁴ Rowling J.K. *Harry Potter and the Sorcerer’s Stone*. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997. – P.55. “*Modomiki bugun dushanba ekan, demak ertaga seshanba. Seshanba kuni esa Garri 11 yoshga to‘ladi*”. (“Гарри Поттер ва афсонавий тош”. – Б.55.)

bo'lganini ko'rish mumkin. Asarning yettinchi kitobi "Garri Potter va ajal tuhfalari" da esa Garri uylangan va farzandli bo'lgan holda tasvirlanadi.

2. Tarbiya romaniga xos bo'lgan yana bir aspekti – ustoz-shogird an'anasi hamda didaktik funksiyaning mavjudligi, ya'ni Hogvarts o'quvchilarining o'qituvchilar hamda maktab direktori oqil va odil Albus Dambldor bilan munosabatlarida hamda uning bolalarga beradigan pand-nasihatlarida namoyon bo'ladi.

3. Asar seriyalarining tili qisqa va sodda bo'lib, qurilish jihatidan murakkab bo'lmagan gaplar va bolalar so'zlashuvda ko'p qo'llaydigan so'zlardan unumli foydalanilgan.

4. Ushbu kitob bolalar uchun yozilgan ekan, unda bolalar yoshiga va psixologiyasiga mos mavzular – do'stlar va oila a'zolari bilan munosabatlar, birinchi muhabbat, o'smirlik muammolari - turli dialoglar va syujet voqealari orqali tasvirlangan.

5. Roman syujeti dinamik tarzda jadal rivojlanib, o'quvchi e'tiborini to'liq o'ziga tortadi, bu esa sarguzasht romaniga xosdir. Garri va uning do'stlari ham yovuz sehrgar Voldemortga qarshi kurashlari mobaynida ko'plab maxluqlarga qarshi jang qilishadi va bir-biridan qiyin vazifalarni bajarishadi. Masalan, asarning birinchi qismi "Garri Potter va afsonaviy tosh" da maxfiy xonada yashiringan toshni olish uchun ular uch boshli itning yonidan o'tib, sehrlil shaxmat o'yinini o'ynaydilar. *"As the door creaked, low, rumbling growls met their ears. All three of the dog's noses sniffed madly in their direction, even though it couldn't see them."* *"We've had Sprout's, that was the Devil's Snare; Flitwick must've put charms on the keys; McGonagall transfigured the chessmen to make them alive; that leaves Quirrell's spell, and Snape's . . ."*²⁵.

Bobning uchinchi fasli "*Fentezi asarlar syujetida sehrlil ertakka xos g'ayrioddiy hodisalar va predmetlar talqini*" deb nomlangan bo'lib, u rus folklorshunosi va filologi V. Proppning "Sehrlil ertak morfologiyasi" tadqiqotida berilgan ertak qahramonlari va ularning vazifalari tahliliga bag'ishlangan. Olimning fikricha, barcha sehrlil ertaklardagi qahramonlar 31 ta funksiyani bajaradi. Ushbu tahlildan maqsad – fentezi romanlari "hajmli" ertak ekanligi haqidagi fikrimizning to'g'riligini dalillashdir. "Narniya yilnomalari" va "Garri Potter" seriyalarining dastlabki qismlarida ushbu funksiyalarning 21 tasi o'z aksini topgan bo'lib, har bir vazifa kitobdan keltirilgan parcha yordamida isbotlab, ochib berildi. Oila a'zolaridan birining uyni tark etishi, bosh qahramonga taqiq qo'yilishi va ushbu taqiqning buzilishi, dushmanning ayg'oqchilik qilishi, unga qurbon haqida ma'lumot berilishi va shu kabi vazifalar bosh qahramonlar tomonidan ham bajarilgan. Vazifalarning qolgan 10 tasi esa kitoblarning navbatdagi qismlarida tasvirlangan. Masalan, 30-funksiya – dushmanning jazolanishi va 31-vazifa – bosh qahramonning turmush qurishi Garri Potter haqidagi epopeyaning

²⁵ Rowling J.K. Harry Potter and the Sorcerer's Stone. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 1997.. – B.284. *"Biz professor Sarsabil xonimning Iblis to'rini yengib o'tdik. Kalitlar professor Flitvikning qiligi bo'lsa kerak. Professor Makgonagall esa shaxmat donalariga jon ato etgan. Oldinda professor Kvirrel bilan Snegg tuzoqlari qoldi"*. ("Гарри Поттер ва афсонавий тош". – Б.336.)

eng oxirgi qismi “Garri Potter va ajal tuhfalari”da aks etadi. Narniya seriyalarining keyingi kitoblarida esa Propp tavsiflagan navbatdagi funksiyalarning guvohi bo‘lish mumkin. Masalan, qahramon maxfiy ravishda uyga yoki boshqa mamlakatga keladi, deb nomlangan 23-funksiyani “Tong sayohati yoxud dunyoning oxirigacha suzib borish” qismida vokzalda poyezd kutayotgan bolalarning to‘satdan Narniyada paydo bo‘lib qolishlari misolida ko‘rsak, 24-vazifada berilgan yolg‘ondakam qahramonni epopeyaning oxirgi qismi “So‘nggi jang”da sher terisini kiyib olgan eshshak timsolida ko‘ramiz. Shubhasiz, Propp tomonidan taklif qilingan ertaklarning tahlil qilish algoritmi fantastik romanlarga ham xos bo‘lib, bu janrlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni isbotlaydi.

